

## ADABIY TA'LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Alimova Pokizaoy Nasim qizi

SHDPI o'zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada adabiy ta'limga yangicha metod va usullar, qolaversa, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida so'z yuritilgan. Bugungi kunda adabiy ta'limga yoshlar ma'nnaviyatiga, dunyoqarashiga ta'siri haqida ayrim mulohazalar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Adabiy ta'limga, zamonaviy pedagogik texnologiya, metod va usul, ma'nnaviyat, o'qitish, pedagog mahorati.

Bugun dunyo xalqlari globallashuv jarayonini boshdan kechirayotgan bir paytda o'zbek millatiga xos qadriyatlar bilan tarbiyalangan, o'zining azaliy tarixini tushungan, anglagan, o'zbekona va sharqona ruhdagi yosh avlodni tarbiyaash ta'limga tizimining eng dolzarb vazifalaridan sanaladi. Zero, o'zbek xalqi o'tmish madaniyati, tarixi, buyuk ajdodlari bilan dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan qadimiy millat hisoblanadi. Shu ma'noda adabiy ta'limga jarayonida ona tili va adabiyot fanlarini zamonaviy yo'nalishda tashkil etish, ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarini mакtabning lider o'qituvchilari sifatida shakllantirish, ular tarbiyasida barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi davrning eng muhim masalasidir. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek: "Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oyinayi hayoti- bu uning milliy tili va adabiyotidir [1].

Adabiy ta'limga yoshlarning dunyoqarashini boyitadi, ularning til bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi, emotsiunal rivojlanishga hissa qo'shadi va ijtimoiy o'zaro munosabatlarda yanada bilimli va o'zini erkin ifoda eta oladigan avlodni tarbiyalashda muhim rol o'yaydi.

Adabiy ta'limga – bu o'quvchilarda adabiyotga qiziqish uyg'otish, adabiy san'atni tushunish va baholash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat pedagogik jarayon. U til mahoratini, estetik didini, ijodiyligi va tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi. Adabiy ta'limga asosi quyidagi komponentlarni o'z ichiga olishi mumkin:



Adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, o'quv jarayonini yanada samarali va interaktiv qilib, o'quvchilarga turli uslublarda bilim berish imkonini yaratadi. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish adabiyot darslarini quyidagi usullarda boyitishi mumkin:

#### **1. Elektron darsliklar va resurslar:**

Multimediali o'quv materiallari, interaktiv mashqlar va online ma'lumotlar bazasi orqali o'quvchilarning mustaqil o'rganish qobiliyatini rivojlantirish.

#### **2. Virtual muhitlar:**

3D model va virtual ekskursiyalar yordamida adabiy asarlarning yaratilish jarayonini yoki tarixiy muhitini o'rganish.

#### **3. Onlayn muhokamalar:**

Onlayn forumlar va bloglar yordamida o'quvchilarni adabiyot haqida muloqot qilishga va fikrlar almashishga rag'batlantirish.

#### **4. Interaktiv doskalar:**

Darslarni sinfda interaktiv doskalar yordamida olib borish, bu orqali adabiyot bilan bog'liq vizual materiallarni namoyish qilish va tahlil qilish.

#### **5. Multimediali taqdimotlar:**

PowerPoint, Prezi kabi vositalar yordamida adabiyot voqeabandligini, personajlarni va ularga oid muhim tushunchalarni vizual ko'rinishda taqdim etish

O'quvchilarga uyda videodarslarni ko'rishni topshirish va sinfda ularga oid interaktiv mashg'ulotlar o'tkazish.

#### **6. Podkastlar va audio kitoblar:**

Adabiy asarlarning audio yozuvlaridan foydalanish orqali o'quvchilarni adabiyotga qiziqishlarini oshirish.

**7. Video darslar:**

O'quvchilar uchun adabiyot asarlari yoki muhim adabiy tushunchalarni tushuntiruvchi qisqa video darslar yaratish.

**8. Onlayn baholash vositalari:**

Testlar, viktorinalar va interaktiv mashqalar orqali bilimlarni onlayn tarzda baholash.

**9. Mobil ilovalar:**

Lug'atlar, ensiklopediyalar, talqinlar va adabi tahlil uchun mo'ljallangan turli ilovalardan foydalanish.

**10. Elektron Portfellar:**

O'quvchilarning ijodiy ishlari va adabiy tahlillarini yig'ish va saqlash uchun elektron portfellar yordamida.

O'qituvchilar, albatta, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilarning individual imkoniyatlarini inobatga olishlari va anonimiylilik, xavfsizlik kabi mavzular bo'yicha o'quvchilarni o'rgatishlari juda muhimdir. Pedagogik texnologiyalar adabiyot darslarini yanada samarali, qiziqarli va ta'sirchan qilib, o'quvchilarning adabiy san'atni qadrlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Adabiyot ta'limining jamiyatdagi o'rni va ahamiyati juda katta, chunki u:

- Insoniy tushunchalarni, hissiyotlarni va ijtimoiy muammolarni ifodalash usulidir.

- O'qish madaniyatini, til boyliklarini rivojlantiradi va estetik didini oshiradi.

- Tarixiy va madaniy merosni saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi.

- Insonlar o'tasidagi o'zaro tushunishni va empatiyani shakllantirishga yordam beradi.

- Tanqidiy fikrlashni, ijodiy qobiliyatni rivojlantiradi va o'z-o'zini o'rganishni targ'ib qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Nizomova Ismigul, Globallashgan jarayonda ona tili ta'limi. Ilmiy maqola.
2. S. Dolimov, H. Ubaydullayev, Q. Ahmedov. Adabiyot o'qitish metodikasi. - T.: «O'qituvchi», 1967;
3. Safo Matjon. Kitob o'qishni bilasizmi?- T.: "O'qituvchi", 1993.11-bet. Husanboyeva Qunduzxon, Niyozmetova Roza
4. Adabiyot o'qitish metodikasi/ o'quv qo'llanma/ Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2020, 325b.
5. Ishmuhamedov R, Yuldashev M. Talim va tarbiya, innovatsion pedagogik texnologiyalar. –T: 2013-yil, 272 b.

6. Madumarov T, Kamolidinov M. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari va uni talim-tarbiya jarayonida qo'llash: uslubiy qo'llanma.-T. "Talqin", 2012-yil. 144 b.